

# Moliyaviy Muassasalarni Kreditlash – Hamkor Bankka kichik biznesni moliyalashtirish uchun kredit ajratish

Davlat:

O'zbekistan

Loyiha tartib raqami:

49225

Biznes faoliyat turi:

Moliyaviy muassasa

E'lon turi:

Xususiy

Ekologik tasnifi:

Moliyaviy muassasa

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:

29 noyabr, 2017 yil

Tasdiqdan o'tish bosqichi:

Loyihaning kontsepsiyasi ko'rib chiqilgan

Loyihaning qisqacha mazmuni bo'yicha xulosa chop etilgan sana:

25 oktabr, 2017 yil

## Loyiha mazmuni

Loyiha Hamkor Bank (HB) aksiyadorlik jamiyatiga 20 million AQSH dollari miqdorida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes vakillarini moliyalashtirish uchun kredit liniyasini ajratishdan iborat. YTTB ning Savdoni rivojlantirish dasturi (SRD) doirasida savdo operatsiyalari bilan bog'liq eksport-importni moliyalashtirish uchun 10 million AQSH dollariga teng limit ham ajratiladi.

## Loyiha maqsadi

Kredit liniyasi Hamkor bankka viloyatlarda va paxta sanoati bilan bog'liq bo'lmagan yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan yangi mijozlarni jalb qilish va xususiy egalik ko'rinishidagi kichik biznes vakillarini moliyalashtirish imkonini yaratadi. Savdoni moliyalashtirish limiti Hamkor bankka import va eksport operatsiyalarini moliyalashtirishni oshirish imkonini beradi va YTTB SRD doirasida 800 dan ortiq tasdiqlovchi banklardan

iborat tarmoqqa ulanib, o'zining korrespondent banklar tarmog'ini kengaytirish imkonini beradi.

## **O'tish davri ta'siri**

Ushbu loyiha davlat banklari katta ulushga ega bolgan bank tizimida xususiy bank bilan hamkorlik qilishni nazarda tutadi. Kichik biznesni moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit liniyasi xususiy kompaniyalar uchun mavjud moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish orqali raqobatni qo'llab-quvvatlaydi hamda bunday korxonalariga beriluvchi kreditlar, moliyaviy mahsulotlar, va tegishli jarayonlar va marketing sohasida innovatsiyani keng targ'ib etadi. Kichik biznesni moliyalashtirish bilan bog'liq tahlil jarayonlarini yuqori darajada amalga oshirishga qo'yilgan talab orqali davomiy kreditlash jarayoni va bankning barqarorligiga hissa qo'shiladi. Savdoni moliyalashtirish limiti, o'z navbatida raqobatni oshirish va Hamkor bankning bu yo'nalishdagi biznesini qo'llab-quvvatlash va mintaqalararo savdoni rivojlantirishga yo'l ochadi.

## **Mijoz haqida ma'lumot**

HAMKOR BANK AJ

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Hamkor Bank kichik biznes vakillarini moliyalashtirishga urg'u beruvchi eng katta xususiy banklardan biridir. Bankning bosh ofisi Andijonda joylashgan bo'lib, u o'z faoliyatini 32 ta filial va 177 ta xizmat ko'rsatish shahobchalari orqali amalga oshiradi.

## **YTTB ning Hamkor bankka ajratiluvchi moliyaviy mablag'i**

20,000,000.00 AQSH dollari miqdoriga teng kichik biznesni moliyalashtirish uchun kredit liniyasi

10,000,000.00 AQSH dollariga teng limit: Hamkor bankning xususiy sektorda faoliyat yurituvchi mijozlarini eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish uchun akkreditiv va boshqa moliyaviy mahsulotlar

## **Loyihaning umumiy qiymati**

25,000,000.00 AQSH dollari

## **Ekologik va ijtimoiy xulosa**

Bank (2014 yilda qabul qilingan Ekologik va ijtimoiy nizomga asosan) moliyaviy muassasa sifatida tasniflanadi. Hamkor bankdan YTTBning Faoliyat yuritish uchun qo'yiluvchi talablar nizomiga (Performance Requirements), ya'ni Xalqaro Mehnat Tashkilotining talablarini o'z ichiga olgan PR2 (Mehnat va ishlash sharoitlari) va PR4 (Ish faoliyati bilan bog'liq sog'liqni saqlash va ehtiyotkorlik choralari) ga javob berilishi talab etiladi. Shuningdek Hamkor bankdan YTTB mablag'lari orqali moliyalashtirishni amalga

oshirayotganida PR9 talablariga, YTTBning ekologik va ijtimoiy yo'nalishda moliyalashtirilishi ma'n etilgan faoliyat turlari (jumladan paxta yoki paxta bilan bog'liq sanoat turlari) kiritilgan ro'yxatiga amal qilishi kerak. Hamkor bank Ekologik va ijtimoiy masalalarni kuzatib borishi uchun avtomatlashtirilgan tizimga ega bo'lib, ushbu tizim YTTBning mablag'lari tomonidan moliyalashtiriluvchi loyihalarga ham qo'llanilishi shart. Bankning YTTB mablag'lari orqali moliyalashtirish ishlari bilan mashg'ul xodimlari YTTBning Moliyaviy institutlarda ekologik va ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan treninglarida ishtirok etishlari shart. Hamkor bank YTTBning PR talablariga javob berishi va Barqarorlik ko'rsatkichlari orqali YTTBga Ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha hisobotlarni har yili topshirishi kerak.

## **Texnik Ko'mak**

Bank "Markaziy osiyo uchun mintaqaviy kichik biznes dasturi" hamda Savdoni moliyalashtirish dasturi doirasida texnik ko'makdan foydalanadi.

## **Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot**

Umumiy ma'lumotlar  
[contact@hamkorbank.uz](mailto:contact@hamkorbank.uz)  
[www.hamkorbank.uz](http://www.hamkorbank.uz)

85 Bobur prospekti., Andijon shahri, O'zbekiston, 170119

## **Biznes hamkorligi**

Biznes hamkorligi yoki ta'minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.

## **Umumiy so'rovlar**

Xarid masalalari bilan bog'liq bo'lmagan YTTB loyihalari bo'yicha ma'lumot uchun:

Tel: +44 20 7338 7168

Elektron manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

## **Ma'lumotlarni oshkor etish**

Ma'lumotlarni oshkor etish siyosati YTTB o'zining strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma'lumotlarni qanday oshkor etishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi.

[Ma'lumotlarni oshkor etish nizomining matni](#)

## **Shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi**

**Project Complaint Mechanism (PCM)**, ya'ni shikoyatlar uchun murojaat qilish vositasi YTTBning mas'uliyatni o'z bo'yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxlar va tashkilotlardan YTTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo'yicha da'volarni yoki yetkazishi mumkin holatlar bo'yicha shikoyatlarni xolisona ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish uchun **Project Complaint Mechanism** sahifasiga tashrib buyuring. Sizing shikoyatlar yuzasidan mavjud har qanday savolingizga Shikoyatlar bilan ishlashga mas'ul mutaxassis ([pcm@ebrd.com](mailto:pcm@ebrd.com)) Shikoyatlar qilish tartibiga muvofiq (**PCM Rules of Procedure**) javob beradi.

PCM doirasida qilingan har qanday shikoyat YTTB mablag'lari ajratilgandan so'ng eng kamida 12 oy muddat ichida amalga oshirilish kerak. Siz PCM ga mas'ul xodimga ([pcm@ebrd.com](mailto:pcm@ebrd.com)) orqali yoki YTTB ning mamlakatingizda joylashgan Vakolatxonasiga murojaat qilish orqali shikoyat davri muddatini aniqlashtirishib olishingiz mumkin.